


**XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR
FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI**
(fermer va dehqon xo 'jaliklarisiz)

**I BO'LIM. TOSHKENT VILOYATI BO'YICHA
KORXONA VA TASHKILOTLAR SONI**

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni
(1- yanvar holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'z o'mida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni
(2024- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

**Ro'yxatdan o'tgan
korxonalar**

66 580

109,8 %

**Faoliyat
ko'rsatayotgan
korxonalar**

45 292

81,6 %

**Yangi tashkil etilgan
korxonalar
(2023- yilda)**

7 156


100,9 %

Yuridik shaxs:


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiylaysi**


Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



*Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar,
ming birlik*



*Xususiy korxonalar,
ming birlik*




Mas’uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjalari bilan belgilangan miqdordorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyatni mas’uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlar qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.


Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsiisi

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- yanvar holatiga ko‘ra)



Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiylaysi**

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(yanvar-dekabr oylarida, ming birlikda)




**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsiyi**

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(ijtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**
(2023- yil yanvar-dekabr oylarida, umumiyl sonidagi ulushi)




**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiyl tavsifi**

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)**




**Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)**



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 7184 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,1 %ga kamaydi. Ishlab chiqarish sanoati (jami sanoatdagi ulushi 93,1 foiz), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash (jami sanoatdagi ulushi 4,6 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (jami sanoatdagi ulushi 1,6 foiz) va elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (jami sanoatdagi ulushi 0,7 foiz) tashkil etdi..

Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsiyi

**Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona
va tashkilotlar soni**
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2 900 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,6 %ga pasaydi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni kamayishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 32,3 %ga (jami qurilishdagi ulushi 51,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish 3,1 %ga (jami qurilishdagi ulushi 12,9 %), korxonalari sonining ortirishidir, shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 32,4 %ga (jami qurilishdagi ulushi 35,8 %) kamayishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, savdo sohasidagi viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi.

Savdo sohasining yo'naliishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo sohasidagi ulishi 63,0 foizni;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasidagi ulishi 30,0 foizni;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidan tashqari 7,0 foizni tashkil etdi.



**KORXONA VA TASHKILOTLAR
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

- Sog'liqni saqlash sohasi

825



- Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash

31



- Yashah uchun joy bilan ta'minlagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

21



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



333

Yashash bo'yicha xizmatlar



2 779

Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 27,7 foizga kamaygan. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 10,7 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 89,3 foiz ulushini tashkil etdi.


**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsiyi**

**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, aloqa yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 28,0 foizini tashkil etdi.

Axborot xizmati ko'rsatish hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 16,4 foizini tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 35,2 foizini tashkil etdi.



**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Oilaviy korxonalar soni
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 6 098 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 116 taga yoki 2,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 848 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 taga yoki 0,9 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2023- yilning yanvar-dekabr oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 707 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 165 taga yoki 30,4 %ga kamapayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 45 927 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 045 taga yoki 102,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 30 904 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 254 taga yoki 100,8 %ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5 992 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 356 taga yoki 129,2 %ga ko'payganligini ko'rish mumkin.




**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




**II BO'LIM. TOSHKENT VILOYATIDAGI
XORIJY KAPITAL ISHTIROKIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR SONI
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)**



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 2 067 tani tashkil etib, ulardan 1 580 tasi yoki 76,9 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 62 taga yoki 3,8 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 392 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(ijtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)**




**Toshkent viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)**

Mamlakalar	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo‘shma korxona	xorijiy korxona
1 	Rossiya Federatsiyasi 163	43	
2 	Qozog‘iston Respublikasi 90	18	
3 	Tojikiston Respublikasi 19	1	
4 	Ukraina Respublikasi 13	6	
5 	Qirg‘iz Respublikasi 11	3	
6 	Ozarbayjon Respublikasi 6	3	
7 	Belarus Respublikasi 10	5	
8 	Armaniston Respublikasi 7	0	
9 	Latviya Respublikasi 1	1	
10 	Moldova Respublikasi 4	2	

**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Jami	1 153	1 318	1 427	1 642	1 580
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	113	127	138	131	91
sanoat	667	714	715	786	673
qurilish	44	68	76	92	72
savdo	182	236	287	369	513
tashish va saqlash	19	24	25	35	30
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	23	27	32	37	36
axborot va aloqa	5	3	8	15	15
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	11	15	15	16	10
boshqa turlar	89	104	131	161	140

**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiyl tavsifi**

**III BO'LIM. HUDUDLAR BO'YICHA KORXONA
VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT**

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)**




**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiyl tavsifi**

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)**


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo‘shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Toshkent viloyati	1580	524	1056
Oqqo‘rg‘on tumani	18	4	14
Ohangaron tumani	70	20	50
Bekobod tumani	2		2
Bo‘stonliq tumani	51	26	25
Bo‘ka tumani	14	5	9
Quyi Chirchiq tumani	48	17	31
Zangiota tumani	349	58	291
Yuqori Chirchiq tumani	104	42	62
Qibray tumani	131	51	80
Parkent tumani	30	13	17
Piskent tumani	29	10	19
O‘rta Chirchiq tumani	90	23	67
Chinoz tumani	30	16	14
Yangiyo‘l tumani	81	24	57
Toshkent tumani	79	32	47
Nurafshon shahri	54	15	39
Olmaliq shahri	51	16	35
Angren shahri	95	51	44
Bekobod shahri	26	14	12
Ohangaron shahri	57	25	32
Chirchiq shahri	118	51	67
Yangiyo‘l shahri	53	11	42

**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsiisi**

**Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)**




**Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning
hududlar kesimida soni
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)**



2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Zangiota tumanida 12,6 %, Qibray tumanida 9,2 %, Toshkent tumanida 6,8 %, Angren shahrida 5,9 %, Yangiyo‘l tumanida 4,9 %, Chirchiq shahrida 7,0 %, Yuqori Chirchiq tumanida 5,0 %, O‘rta Chirchiq tumanida 4,0 %, Olmaliq shahrida 4,3 %, Parkent tumanida 4,6 %, Bo‘stonliq tumanida 4,4 %, Yangiyo‘l shahrida 3,5 %, Quyi Chirchiq tumanida 2,8 %, Bo‘ka tumanida 3,0 %, Bekobod shahrida 2,9 %, Ohangaron tumanida 2,7 %, Piskent tumanida 2,5 %, Nurafshon shahrida 2,4 %, Ohangaron shahrida 3,0 %, Chinoz tumanida 2,6 %, Bekobod tumanida 2,9 % va Oqqo‘rg‘on tumanida 2,3 %ni tashkil etadi.

**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiylaysi**


**Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo‘shma korxona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi %da)**



2022-2026 yillarda rivojlanishning yo‘nalishi bo‘yicha “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish muhim hisoblanadi.


**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsiyi**

**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni
(2023- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)**



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida ko'riladigan bo'lsa, asosan O'rta Chirchiq (10,2 %), Oqqo'rg'on (4,8 %), Bo'stonliq (5,7 %), Yuqori Chirchiq (7,2 %), Zangiota (7,9 %), Yangiyo'l (6,6%), Parkent (10,9), Qibray (5,5 %), Toshkent (9,5 %), Chinoz (2,0 %) tumanlari va Nurafshon (4,0 %) shahri yuqori ulushga ega.

**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalar soni
(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)**



**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnomasi, vaqtiga-saqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faoliyik darajasi - ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmasan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.